

FAMILIYA LINGVISTIK TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

Shodmonqulova Orasta Bobir qizi
Qarshi davlat universiteti 1-kurs doktoranti
E-mail: orasta426@gmail.com
+998976722103

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21201089>

Annotatsiya. Ushbu maqolada familiyalarning ingliz, rus, turkiy va o‘zbek tillarida qaysi olimlar tomonidan o‘rganilgani haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, tadqiqotlar qaysi yo‘nalishda olib borilgani va ular fanga qanday yangiliklar olib kirganligi borasida qarashlar mavjud.

Kalit so‘zlar: familiya, lingvomadaniy aspekt, merosiy nom, lingvistik muzey, nasab, milliy identitet, onomastika, madaniy birlik.

Abstract. This article discusses which scholars have studied surnames in English, Russian, Turkish, and Uzbek. There are also views on the direction in which the research was conducted and what innovations they brought to science.

Keywords: surname, linguocultural aspect, hereditary name, linguistic museum, lineage, national identity, onomastics, cultural unity.

Аннотация. В данной статье рассматривается, какими учеными изучались фамилии на английском, русском, турецком и узбекском языках. Также существуют взгляды на то, в каком направлении проводились исследования и какие новшества они внесли в науку.

Ключевые слова: фамилия, лингвокультурный аспект, наследственное имя, лингвистический музей, родословная, национальная идентичность, ономастика, культурная общность.

Kirish. Familiyalar onomastikaning o‘rganish obyekti hisoblanib, antoponimlaning salmoqli qismini tashkil etadi. Ular avlodlarga merosiy bo‘lib o‘tadigan nom bo‘lib, har bir tilda familiyani shakllantiruvchi o‘ziga xos shakllar mavjud. Jahon mamlakatlarining deyarli har birida o‘ziga xos familiyalar mavjud, ammo qanaqadir familiyani tanlash majburiy emas. Bizning yurtimizda ham fuqarolar uchun aniq bir shakldagi rasmiy familiya indikatorlari mavjud emas. Kim qaysi shaklni xohlasa, hujjatiga o‘shani yozdirishi mumkin. Dunyo tilshunosligida familiyalar turli tillar doirasida salmoqlicha o‘rganilgan bo‘lib, bugungi kunda ham ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Asosiy qism. Ingliz tilshunosligida bu mavzuni o‘rgangan asosiy olimlar quyidagilar:

1. R. McKinley o‘zining “A History of British Surnames” va “The Surnames of England and Wales” asarlarida ingliz familiyalarining kelib chiqishi (kasb, joy nomi, ota ismi) va ijtimoiy tabaqalarning tarixiy ong bilan bog‘liqligi haqida to‘xtalib, familiyalarni tarixiy va sotsial aspektda o‘rgangan. “A History of British Surnames” kitobida ijtimoiy tarixga oydinlik kiritish uchun familiyalar tadqiqotidan foydalanilgan hamda Britaniya jamiyatiga doimo xos bo‘lib kelgan aholi migratsiyasining murakkab qonuniyatlariga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, unda familiyalardagi hududiy va tabaqaviy farqlar hamda ularning ayrim xususiyatlari bizning davrimizgacha qanday saqlanib qolgani tasvirlangan [5].

2. P. Hanks esa familiyalarni semantik va madaniy birlik sifatida tahlil qiladi, shuningdek, ism, familiyaga kognitiv model sifatida qaraydi. Uning “Dictionary of American

Family Names” hamda “The Oxford Dictionary of Family names in Britain and Ireland” kitoblarida 100000 ga yaqin ingliz familiyalari lug’ati aks etgan[6]. U ingliz familiyalarining kelib chiqishini quyidagicha izohlaydi: “Angliyadagi eng qadimgi familiyalar paydo bo’lgan til ingliz tili emas, balki norman fransuz tili bo’lgan. 1066-yilda Normandiya gersogi Vilgelm Bosqinchi Angliya monarxiyasini qo’lga kiritgach, uning ko’plab safdoshlariga Angliyadan yerlar va unvonlar in’om qilingan. Bu norman baronlari va ularning izdoshlari nafaqat ismlari bilan, balki tobora ko’proq laqabdan olingan familiyalari (irsiymi yoki yo’qmi) bilan ham tanila boshlaganlar. Masalan, Gernon qadimgi fransuz tilidagi “gernon”, ya’ni “mo’ylov” so’zidan olingan; kasb yoki yuqori davlat lavozimidan (masalan, Marshall qadimgi fransuzchadagi “mareschal”, ya’ni “zodagon xonadoniga mas’ul amaldor”); ajdodining ismidan (masalan, Bertram qadimgi fransuzcha Bertran(t) ismidan) yoki eng ko’p tarqalgan holatda, oilaning shimoliy Fransiyada (masalan, Persi Normandiyadagi shu nomli bir necha joydan birining nomidan) yoki Angliyada (masalan, Kler Suffolkdagi Kler nomli oilaviy mulkdan) egalik qilgan joy nomidan olingan” [3].

3. G.Redmonds “Surnames and Genealogy” hamda “Christian Names in Local and Family History” asarlarida familiyalarni hududiy va madaniy xotira bilan bog’laydi, ya’ni u familiyalarni asosan lingvomadaniy aspektida o’rgangan [2].

Bundan tashqari, E.Weekley, D.Crystal va S.Lieberson kabi olimlar familiyalarining turli jihatlarini tadqiq etishgan.

Rus tilshunosligida familiyalarni o’rganish asosan onomastika, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyat doirasida olib borilgan. Ushbu yo’nalishlar familiyani faqat nomlash birligi sifatida emas, balki jamiyat, tafakkur va madaniyat bilan uzviy bog’liq bo’lgan murakkab fenomen sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Rus familiyalarining kelib chiqishi masalasiga mahalliy (L. V. Uspenskiy, A. A. Reformatskiy, O. N. Trubachev, N. A. Baskakov, A.V. Superenskaya, A. V. Suslova) va xorijiy (B. O. Unbegaun) tadqiqotchilar bir necha bor murojaat qilishgan.

Onomastik tadqiqotlarning nazariy asoslari A.V. Superanskaya ishlari bilan bog’liq. Olim familiyalarni atoqli otlarning muhim turi sifatida ko’rib, ularning semantik, struktur va funksional xususiyatlarini yoritadi. Uning asarlarida familiya – nomlash jarayonining mahsuli bo’lib, inson tafakkuri va ijtimoiy tajribasi bilan bog’liq ekanligi ta’kidlanadi [6]. Bu yondashuv familiyalarni kognitiv aspektida o’rganish uchun muhim metodologik asos yaratadi.

V. A. Nikonov tadqiqotlarida familiya va jamiyat munosabati markaziy o’rinni egallaydi. Olim familiyalarni ijtimoiy tarix bilan bog’lab, ularning shakllanishida kasb, ijtimoiy mavqe, hudud va tarixiy jarayonlarning ta’sirini ko’rsatadi. Nikonovning ishlari familiyani sotsial marker sifatida talqin qilish imkonini beradi [7].

Shuningdek, V. N. Telia va S. M. Tolstaya ishlari familiyalarni lingvomadaniy va etnolingvistik jihatdan o’rganishga xizmat qiladi. Ularning tadqiqotlarida nomlar madaniy kod, milliy qadriyat va etnik o’ziga xoslikning muhim belgisi sifatida talqin etiladi.

Rus tilshunosi O. Isachenko familiyalarga shunday ta’rif beradi: “Familiyalar — qadimiy, o’ta barqaror va an’anaviy leksik birliklardir. Ismlar sohasida esa doimiy o’zgarishlar kuzatiladi: ayrim ismlar (Ustin, Ustinya, Praskovya, Lavr, Nelyub) urfdan qolib, iste’moldan chiqadi, boshqalari (Stepan, Bogdan) esa, aksincha, ommalashadi, yana birlari (Kim, Gertruda) esa yangidan paydo bo’lib, ma’lum muddat mashhurlikka erishadi.

Familiyalar odamlarga meros bo'lib qoladi va farzandlarga otadan yoki onadan o'tadi. Familiyani o'zgartirish mumkin, albatta, ammo bu har bir shaxsning o'ziga xos holatidir. Shu bilan birga, FHDY idoralari har qanday yangilikni, ayniqsa, aqlga sig'maydigan va g'ayrioddiy familiyalarni ro'yxatdan o'tkaza olmaydi. Masalan, 2013-yili Novosibirsk Davlat universitetining umumiy va rus tilshunosligi kafedrasiga Novosibirsk shahrining markaziy tumani FHDY idorasidan ekspertiza o'tkazish iltimosi bilan murojaat qilingan. Babin ismli shaxs familiyasini “Prezident-Velikoy-Rossii-Babin”ga o'zgartirish uchun ariza topshirgan. Albatta, uning arizasi rad etilgan. Bunga, avvalo, rasmiy sabablar asos bo'lgan: bu variant rus familiyasi tuzilishiga oid qoidalarga zid edi” [4].

Uning fikrlariga ko'ra, familiyalar — son-sanoqsiz ko'chma eksponatlarga ega lingvistik muzeydir. Tabiatda qancha rus familiyasi borligi hech kimga ma'lum emas. Ular texnik sabablarga ko'ra, keng o'zgaruvchanlik tufayli juda ko'p: deyarli bir xil familiyalar (Malsev va Malsov, Safronov va Sofronov, Andrianov va Andriyanov, Korjavin, Karjavin va Korjevin, Tkachyov va Tkachov, Visotskiy va Visotskiy, Sinitsin va Sinitsin) har xil deyilishi mumkin, chunki ularning harfma-harf yozilishi yuridik ahamiyatga ega va pasport ma'lumotlariga ko'ra turli familiya egalarini farqlashga xizmat qiladi. Bunda familiya omonimiyasi hodisasini kuzatishimiz mumkin.

Turkiyshunoslikda ham familiyalar bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, qozoq tilshunosligida T. Januzaqov va E. Haydar kabi olimlar familiyalarni antroponimiyaning tarkibiy qismi sifatida o'rganib, urug', ota ismi va laqabdan kelib chiqqan familiyalar va ularni hosil qiluvchi vositalar haqida to'xtalib o'tgan [8]. Tojik tilshunosligida esa S. Rahimov, N. Mahmudshoyev va boshqalar fors-tojik an'anasidagi nasab tizimini, familiyalar va milliy identitet masalalari hamda *-zoda*, *-iy*, *-ov/-yev* shakllarini o'rganishgan. Qirg'izlarda sobiq sho'ro familiya tizimining shakllanishi, *-ov/-yev*, *-uulu* shakllari, *ism+ota nomi +familiya* modeli hamda familiyalarning ijtimoiy-tarixiy jarayon bilan bog'liqligi o'rganilgan (K. K. Yudaxin, A. T. Aytmatov). Turkman va qoraqalpoq tilshunosligida familiyalar hali yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

O'zbek tilshunosligida ham bir qancha olimlar o'z asarlarida familiyalarni faqat antroponimik birlik sifatida tahlil qilishgan. Atoqli nomshunos olim E. Begmatov bir qancha maqolalarida o'zbek tilidagi familiya tushunchasi, sof turkiy familiya qanday bo'lishi kerakligi va hozirgi davr uchun milliy qadriyatlarga mos keluvchi familiyalarga ehtiyojimiz borligi haqida kuyinib fikr bildirgan. Masalan, “Bizga familiya kerakmi?” maqolasida shunday yozadi: “Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida familiya bo'lishi shart. Chunki u, birinchidan, sulola ko'rsatkichi hisoblanadi, kishilarning qon-qarindoshligini isbotlaydi, ikkinchidan, har xil merosiy mulklarni rasmiylashtirishni osonlashtiradi. Turli hujjatlarni to'lg'azish, aholi ro'yxati kabi tadbirlar faqat kishilar nomlariga qarab olib borilsa, ish ancha murakkablashgan bo'lar edi” [1]. Bundan tashqari, o'zbeklar uchun milliy familiya yasash uchun bir qancha takliflar berib o'tgan. Ya'ni sof turkiy *-lik* yoki *-in*, *-iy* qo'shimchalari yordamida familiya hosil qilish: Axsikatlik, Beshkentlik, Rahmatullin, Naymaniy, Naqshbandiy kabi.

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, familiyalar dunyo onomastikasida katta o'ringa ega va uning hali o'rganilmagan, tahlilga muhtoj tomonlari ko'p. Bugungi davr olimlari familiyalarni zamon talabidan kelib chiqqan holda yangicha metodlar asosida o'rganishi zarur. O'zbek nomshunoslari oldida ham bu borada kechiktirib bo'lmas vazifalar bor, shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:



1. Begmatov. E. “Bizga familiya kerakmi?” maqolasi. “Fan va turmush” jurnali, 1991-yil, 4-son.
2. G. Redmonds. Surnames and Geneology. 1997.
3. Hanks. P. Dictionary of American family names. Oxford University Press. 2003.
4. Об истории русских фамилий рассказала доцент кафедры общего и русского языкознания. Гуманитарного института Новосибирского государственного университета кандидат филологических наук Оксана Михайловна Исаченко.
5. R. McKinley. A History of British Surnames. 1990.
6. Superanskaya A.V. Общая теория имени собственного. 1973.
7. Никонов. В. А. Имя и общество. 1974.
8. Жанұзақов. Т. Қазақ антропонимиясы. Алма-Ата: Ғылым. 1982.